

**DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH
MANBALARI****Yuldasheva Umida**

TDIU, “Xalqaro moliya”

kafedrası DSc., professor

umida_yu@mail.ru**Negmurodova Mulkiya**

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi

mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: Tadqiqotda budjet daromadlarining asosiy tarkibiy qismlari - soliq tushumlari, soliqdan tashqari daromadlar, bojxona tushumlari va davlat mulki daromadlari - aniqlanib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatiladi. Shuningdek, budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmlarining samaradorligi, ularning o'sish sur'atlari va diversifikatsiya imkoniyatlari tahlil qilinib, mamlakat fiskal siyosatining istiqbolli yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, budjet daromadlari, soliq tushumlari, soliqdan tashqari daromadlar, bojxona tushumlari, davlat mulki daromadlari, fiskal siyosat, budjet tizimi, byudjet barqarorligi, daromad manbalari, moliyaviy barqarorlik.

Kirish

Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini o'zida mujassamlashtiradi. U ma'lum bir moliyaviy yil uchun davlat tomonidan tasdiqlanadigan daromadlar va xarajatlar rejasini ifodalab, milliy daromadning bir qismini markazlashgan holda qayta taqsimlash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Davlat budjeti orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari moliyalashtiriladi, ijtimoiy soha rivojlantiriladi, hududlararo moliyaviy muvozanat ta'minlanadi hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlari bajariladi. Shu bilan birga, davlat budjeti makroiqtisodiy tartibga solishning muhim instrumenti bo'lib, fiskal siyosat orqali iqtisodiy o'sish sur'atlariga, bandlik darajasiga va inflyatsiya jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uning qayta taqsimlash, tartibga solish va nazorat funksiyalari davlat moliya siyosatining samaradorligini belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda davlat budjeti nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash vositasi, balki davlat boshqaruvi shaffofligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Davlat budjeti daromadlari davlat tomonidan o'z funksiyalarini bajarish va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni moliyalashtirish maqsadida shakllantiriladigan moliyaviy resurslar majmuini ifodalaydi. Davlat budjeti daromadlari majburiy va ixtiyoriy to'lovlar asosida shakllanib, ularning asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etadi. Shu bilan birga, soliqdan tashqari daromadlar, bojxona tushumlari, davlat mulkidan olinadigan daromadlar hamda rasmiy transfertlar byudjet daromadlarining muhim manbalari hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarining hajmi va tarkibi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, fiskal siyosatning samaradorligi hamda soliq ma'murchiligining holatini aks ettiradi. Barqaror va diversifikatsiyalangan daromadlar bazasi davlat budjetining muvozanatli ijrosini ta'minlab, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy majburiyatlarni to'liq bajarish va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam moliyaviy asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat budjetini shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish jarayonlari maxsus normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar davlat moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni nazorat qilish hamda fiskal intizomni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida" gi buyrug'ida davlat budjeti davlat pul mablag'larning markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, moliya yili mobaynida daromadlar manbalarini va ularning haqiqiy tushumlar miqdorini, shuningdek aniq maqsadlarga ajratiladigan mablag'larning sarflanish yo'nalishi va miqdorini ko'zda tutilgan [1]. Mazkur hujjatga budjetlararo munosabatlarni, jumladan respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar o'rtasida daromadlar va xarajatlar balansini ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, hujjat davlat budjeti ijrosi davomida mahalliy budjetlarning daromad va xarajat yoyilmasiga o'zgartirishlar kiritish, qo'shimcha budjet manbalarini aniqlash hamda erkin qoldiq mablag'larni hisobga olish tartibini belgilaydi. Bu qoidalar orqali budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, budjet jarayonining shaffofligi hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi davlat budjeti tizimini shakllantirish, rejalashtirish, tasdiqlash va ijro etish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy kodifikatsiyalangan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur kodeksda davlat budjeti tizimining tuzilishi, respublika va mahalliy budjetlarning o'zaro munosabatlari, budjet daromadlari va xarajatlarning tasnifi, budjet jarayonining barcha bosqichlari - budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish tartiblari aniq belgilab berilgan. Shuningdek, Budjet kodeksida budjet mablag'laridan foydalanishning maqsadliligi va samaradorligini ta'minlash, fiskal intizomni mustahkamlash hamda byudjet ijrosi ustidan davlat moliyaviy

nazoratini amalga oshirish mexanizmlari mustahkamlangan. Kodeks davlat budjeti barqarorligini ta'minlash, byudjetlararo muvozanatni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yagona huquqiy asosni shakllantiradi hamda mamlakatda fiskal siyosatni izchil va shaffof amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi [2].

Umuman olganda, davlat budjeti daromadlarining izchil va samarali shakllanishi mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim poydevori hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat budjeti yuridik kategoriya sifatida davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining shakllanish manbalarini va ishlatilish yo'nalishlarini ko'rsatuvchi davlatning yirik moliyaviy rejasi hisoblanadi. Har qanday moliyaviy reja kabi, davlat budjeti ham daromadlar va xarajatlar qismidan iborat.

Amerikalik iqtisodchi olim Richard Abel Musgrave budget siyosatini uch asosiy funktsiyaga bo'lib tasniflaydi: iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, resurslarni qayta taqsimlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlash. Musgravening fikricha, davlat budjeti daromadlari soliq tushumlari, soliqdan tashqari daromadlar va davlat mulki daromadlaridan tashkil topib, ularning shakllanishi orqali davlat o'z ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarini amalga oshiradi [3]. Soliqlar daromadlarni markazlashtirish va ularni iqtisodiyotning turli sohalariga maqsadli yo'naltirish vositasi sifatida ko'riladi, bu esa fiskal siyosatning samaradorligi va byudjet barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Musgrave davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi, budget balansini saqlash va fiskal intizomni mustahkamlashning muhimligini ta'kidlaydi.

Mahalliy iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan yozilgan "Davlat Budjeti" o'quv qo'llanmada davlat budjeti tizimi, uning struktura va funktsiyalari batafsil yoritilgan bo'lib, budget daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, budget jarayonini tuzish, tasdiqlash va ijro etish bosqichlari aniq tavsiflangan [4]. Kitobda daromadlar tarkibi, jumladan soliqlar, bojxona tushumlari va davlat mulki daromadlari orqali budjetni diversifikatsiya qilish zarurati ta'kidlangan, shuningdek budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi va ijrosi ustidan nazorat mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan. Mualliflar fikricha, davlat byudjeti nafaqat moliyaviy reja, balki davlat fiskal siyosatini amalga oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning strategik instrumenti sifatida ahamiyatga ega. Shu tarzda kitob mamlakat moliya tizimi va budget siyosatini chuqur tushunish, shuningdek amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

Bundan tashqari xorijiy olimlar Allan H. Meltzer va Scott F. Richard tomonidan yozilgan "A Rational Theory of the Size of Government" maqolasi fiskal siyosat va davlatning budget miqdorining nazariy asoslarini izchil tahlil qiladi [5]. Mazkur

tadqiqotda mualliflar iqtisodiyotda hukumatning nisbiy o'lchamini - ya'ni soliqlar va xarajatlar orqali qayta taqsimlanadigan daromadlar ulushini - umumiy tenglik nazariyasi asosida izohlashga urindilar. Tadqiqotda, demokratik qarorlar qabul qilish jarayonida saylovchilarning soliq yukini va daromad taqsimoti natijasida yuzaga keladigan samaradorlik yo'qotishlarini inobatga olgan holda hukumatning fiskal ulushi qanday shakllanishi masalasi ko'rib chiqiladi.


Natijada, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti daromadlarining shakllanishi nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u mamlakat iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishining poydevori hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy asoslangan tahliliy, taqqoslash va statistik metodlar keng qo'llanildi. Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi tomonidan berilgan rasmiy byudjet ma'lumotlari o'rganildi, bu orqali daromadlarning tarkibi va ulushlari aniq ko'rsatildi. Shu bilan birga, tadqiqotda daromadlar strukturasi funksional va manbaviy tasnifi, ularning YaIMga nisbati va vaqt o'tishi bilan o'zgarish tendensiyalari ham o'rganildi.

Tahlil va natijalar

Budjet - bu davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash va sarflash shaklidir. Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mukammallashtirish iqtisodiyot rivojlanishining o'zaro nisbiyligini va tengligini ta'minlaydi, iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalarini rivojlanishi hamda samarali ishlashini ta'minlaydi hamda budjet daromadlari va xarajatlarning tengligini ta'minlaydi.



1-

rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2025-yil 1-yarim yillik daromadlari ijrosi⁶

Davlat budjeti daromadlari 2025-yilning birinchi yarim yilligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2% ga o'sib, 121,0 trln so'mdan 144,2 trln so'mga yetgan. Bu o'sishning asosiy drayveri bilvosita soliqlar hisoblanib, ular 40,0 trln so'mdan 51,3 trln so'mga (taxminan 28,3% o'sish) oshgan va bu o'sishning katta qismi Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ning 26,7 trln so'mdan 35,9 trln so'mga (34,45% o'sish) keskin oshishi hisobiga yuz bergan. Bu iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish va iste'molning sezilarli darajada o'sganidan dalolat beradi. Shuningdek, boshqa daromadlar ham 23,5 trln so'mdan 29,3 trln so'mga (24,7% o'sish) ko'payib, umumiy daromadlarga sezilarli hissa qo'shgan. Bevosita soliqlar 40,2 trln so'mdan 44,0 trln so'mga (taxminan 9,45% o'sish) yetgan bo'lib, bu asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (16,9 trln so'mdan 19,9 trln so'mga, ya'ni 17,75% o'sish) hisobiga ta'minlangan. Biroq, foyda solig'ining nisbatan sust (22,0 trln so'mdan 22,5 trln so'mga, atigi 2,27% o'sish) o'sishi korxonalarning rentabelligi yoki soliq siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Resurs to'lovlari va mulk solig'ining tarkibiy qismlari (yer qa'ri, yer, mol-mulk va suv resurslari uchun soliqlar) ham barqaror o'sishni (umumiy 14,5% o'sish) ko'rsatib, tabiiy resurslar va mulkdan keladigan daromadlarning davlat byudjetida muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2025-yil 1-yarim yillik xarajatlari ijrosi⁷

Umumiy xarajatlar sezilarli darajada o'sib, 149,8 trln so'mdan 173,3 trln so'mga yetgan, bu esa qisqa muddatda 15,6% o'sishni anglatadi. Xarajatlarning YaIMga nisbati esa deyarli o'zgarmagan (10,3% dan 10,1% gacha biroz kamaygan), bu iqtisodiy o'sish xarajatlarning o'sishi bilan deyarli teng sur'atda ketayotganini bildiradi. Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha eng katta o'sish "Davlat maqsadli jamg'armalar" bandida kuzatilgan bo'lib, ular 14,6 trln so'mdan 26,3 trln so'mga qadar qariyb 80% ga oshgan. Bu hukumatning kelajakdagi muhim loyihalar va dasturlarga sarmoya kiritishga bo'lgan ustuvorligini ko'rsatadi. "Ish haqi" xarajatlari ham 54,0 trln so'mdan 62,0 trln so'mga (14,8% o'sish) ko'paygan, bu esa davlat sektori xodimlarining maoshlari oshirilishi yoki ish o'rinlarining ko'payishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. "Ijtimoiy soliq" (13,1 trln so'mdan 15,0 trln so'mga) va "Foiz to'lovlari" (7,0 trln so'mdan 8,6 trln so'mga) ham sezilarli o'sishni ko'rsatib, davlatning ijtimoiy majburiyatlari va qarzdorlik yukining oshganini aks ettiradi. Boshqa tomondan, "Kapital qo'yilmalar" 5,4 trln so'mdan 5,0 trln so'mga (7,4% kamayish) biroz pasaygan, bu qisqa muddatda investitsion faoliyatga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar nisbiy kamayganini yoki samaradorlikka urg'u berilayotganini ko'rsatishi mumkin. "Subsidiyalar" ham deyarli o'zgarmagan. "Boshqa xarajatlar" esa kamaygan (15,0 trln so'mdan 14,4 trln so'mga), bu ehtimol ba'zi noaniq xarajatlarni optimallashtirishga urinishlarni aks ettiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat budjeti daromadlari soliqlar, bojxona tushumlari, davlat mulki daromadlari va soliqdan tashqari boshqa manbalar orqali

shakllanadi va ularning samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi hamda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Davlat budjeti daromadlari mamlakat moliyaviy tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Budget daromadlarining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etib, ular davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bojxona tushumlari, davlat mulkidan olinadigan daromadlar hamda soliqlardan tashqari boshqa manbalar budget daromadlarini diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Daromad manbalarining to'g'ri tasniflanishi va ularning barqaror o'sishini ta'minlash davlat moliyasini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, budget defitsitini kamaytirish hamda mablag'lardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, daromadlar tarkibidagi muvozanat davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, davlat budjeti daromadlarini samarali shakllantirish va boshqarish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi. Budget daromadlarining barqaror va prognoz qilinadigan manbalarga tayanishi davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 07.10.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3558.
2. O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi
3. "The Theory of Public Finance"- Richard Abel Musgrave. (<https://desmarais-tremblay.com>)
4. Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma / J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov, S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. -316 b.
5. "A Rational Theory of the Size of Government"- Allan H. Meltzer va Scott F. Richard. (<https://www.haverford.edu>)
6. <https://kun.uz>